



**AHMAD TABIBIY MUSABBA’SIDA MUMTOZ SHE’RIYAT AN’ANALARI
VA IJODIY NOVATORLIK**

Azizbek Toshpo‘latov Ikromjon o‘g‘li
Namanagan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
azizbektoshpulatov1907@gmail.com

ANNOTATSIYA. Maqolada Ahmad Tabibiyning Fazliy asariga tatabbu’ sifatida yaratilgan musabba’si tahlil etilgan. Asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, unda qo‘llanilgan mumtoz she’riyat an’analari va ijodiy yangiliklar o‘rganilgan. Musabba’da Muhammad Rahimxon Feruz obrazi, uning adolatli hukmdor sifatidagi fazilatlari tasvirlanishi, shuningdek, shoir qo‘llagan tashbeh, talmeh, mubolag‘a, tazod kabi badiiy san’atlar mahorati tadqiq etilgan. Tabibiyning an’anaviy madhiya janrida yangicha mazmun va shakl yaratish, xususan musulmon xalifalari, qadimgi Eron shohlari obrazlaridan o‘ziga xos foydalanish usullari ochib berilgan.

KALIT SO‘ZLAR: Tabibiy, Fazliy, musabba’, tatabbu’, madhiya, Feruz, badiiy san’atlar, tashbeh, talmeh, mubolag‘a, mumtoz an’analar, novatorlik.

ANNOTATION. The article analyzes the musabba by Ahmad Tabibiy as a tatabbu to Fazliy’s work. The ideological and artistic features of the work, classical poetry traditions and creative innovations used in it have been studied. The image of Muhammad Rahimkhon Feruz in the musabba, the depiction of his qualities as a just ruler, as well as the mastery of literary devices used by the poet such as tashbih, talmih, mubalagha (hyperbole), and tazod have been examined. Tabibiy’s methods of creating new content and form in the traditional genre of madhiya, particularly his unique use of images of Muslim caliphs and ancient Persian kings, have been revealed.

KEYWORDS: Tabibiy, Fazliy, musabba, tatabbu, madhiya, Feruz, literary devices, tashbih, talmih, mubalagha, classical traditions, innovation.

АННОТАЦИЯ. В статье анализируется мусабба, созданная Ахмадом Табиби как татаббу на произведение Фазли. Исследованы идейно-художественные особенности произведения, использованные в нем традиции классической поэзии и творческие новшества. Рассмотрены образ Мухаммада Рахимхана Феруза в мусаббе, изображение его качеств как справедливого правителя, а также мастерство использования поэтом таких литературных приемов, как ташбих, талмих, мубалага (гипербола) и тазод. Раскрыты методы Табиби в создании нового содержания и формы в традиционном жанре мадхия, особенно его уникальное использование образов мусульманских халифов и древнеперсидских царей.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Табиби, Фазли, мусабба, татаббу, мадхия, Феруз, литературные приемы, ташбих, талмих, мубалага, классические традиции, новаторство.

KIRISH

XIX-XX asrlar o‘zbek adabiyoti tarixida muhim o‘rin tutadigan davrlardan biri hisoblanadi. Bu davrda Qo‘qon va Xorazm adabiy muhitida ko‘plab shoirlar ijod qilib, ular o‘zaro ijodiy hamkorlik va ta‘sir doirasida bo‘lganlar. Xususan, Qo‘qon adabiy muhiti vakillari asarlariga tatabbu‘ bog‘lash an‘anasi Xorazm adabiy muhitida ham keng tarqalgan edi.

Xorazm adabiy muhitining yirik namoyandalaridan biri Ahmad Tabibiy bo‘lib, u Fazliy she‘rlaridan ilhomlanib tatabbu‘ bog‘lagan. Shoir Muhammad Rahimxon Feruzga bag‘ishlangan musabba’sini Fazliyning “Majmuai shoiron”dagi mutassa’siga tatabbu‘ sifatida yaratgan. Bu she‘r Feruz shaxsiyati, uning adolatli hukmdor sifatidagi fazilatlarini tasvirlashga bag‘ishlangan bo‘lib, unda mumtoz she‘riyat an‘analari va ijodiy yangiliklar uyg‘unlashgan.

Mazkur maqolada Tabibiyning Fazliy asariga tatabbu‘ sifatida yaratilgan musabba’sining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, unda qo‘llanilgan badiiy san‘atlar, an‘anaviy obrazlar talqini hamda shoir mahorati masalalari tadqiq etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

XIX asrda Qo‘qon adabiy muhitining yorqin davri hisoblanadi. Bu davr mumtoz adabiyotimiz uchun o‘ziga xos an‘ana maktabi vazifasini bajaradi. Bu davrda adabiy ta‘sir masalalari yetakchi o‘rinda bo‘lib, Xorazm adabiy muhitiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi. Bu holatlar turli ijodkorlar asarlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, Tabibiy Fazliy asarlaridan ilhomlanib, ularga tatabbu‘lar bog‘laydi.

Shoirning bir musabba’si Feruzga madhiya shaklida bitilgan bo‘lib, bu musabba’ni Fazliyning “Majmuai shoiron”[1, 422-424]idagi “*Shoh bizning shohimiz, sulton bizing sultonimiz, Davr bizning davrimiz, davron bizing davronimiz*” misrasi bilan yakunlanuvchi mutassa’siga tatabbu‘ qilib yaratgan. Fazliyning bu mutassa’si aruzning ramali musammani mahzuf (maqsur) vaznida yozilgan. Tabibiy bu vaznni saqlab, unga yangicha obraz va talqinlar yuklaydi. Mutassa’sining so‘nggi bir baytidan foydalanib, Feruz shaxsiyatiga xos madhiya bitadi.

Mumtoz adabiyotimizda g‘azalga taxmis bog‘lash yoki muxammasga muxammas bog‘lash kabi holatlar haqida R.Orzibekov shunday fikr bildiradi: “Adabiyot tarixida g‘azalga tazmin musammatlar – muxammaslar, musaddaslar, musammanlar bog‘lash anchagina keng ildiz otgan, sezilarli adabiy hodisaga aylangan bo‘lsa-da, lekin muxammasga muxammas yoxud musamman bog‘lash, g‘azaldan tashqari, muxammaslar asosida ham nazira, tatabbu‘ yoki tavorid xarakteridagi musammat navlarini yaratish kam uchraydigan xarakterli faktlardandir” [2, 81]. Tabibiy mumtoz adabiyotda kam uchraydigan mutassa’ga o‘xshatma bitgan. Bu o‘xshatma shoirning yuksak salohiyatiga dalolat qiladi.

Musabba’ning dastlabki bandida nafaqat davrning yuksak madaniyati va adabiyotidan darak beradi, balki shoirning o‘tkir zehni va badiiy mahoratini ham yaqqol namoyon etadi.

Adolat, saxovat va ma‘naviy kamolot kabi insoniy fazilatlar shoirning asosiy g‘oyalari bo‘lib, ular orqali hukmdor obrazini mahorat bilan gavdalantiradi.

Tabibiy Feruz shaxsiyatini, xarakterini yorqin va ta‘sirli qilib ifodalash yo‘lidan borib, talmehdan tasvirni yanada boyitish vazifasida foydalanadi. Bu san‘atda ham tashbehdagidek o‘xshatish mazmunini, uning xususiyatini tasvir obyektiga yuklab keladi.

Quyidagi musabba’ bandida shoir shohning fazilatlarini orqali ideal hukmdor obrazini yaratadi. Tabibiy o‘z zamondoshlariga ibrat bo‘larli hukmdorni tasvirlash bilan insoniyatni ezgulikka chorlab, o‘z oldiga yuksak ma‘naviy-axloqiy maqsadlarni qo‘yadi:

*Xilqati bazli saxovatda kelib Hotam nishon,
Bordur adlidin hamisha munfa’il No’shiravon,
Dargahi oliyi fazl ahligadur doru-l-amon,
Ahli ilm ila funun lutfidin o‘lmish komron,
Qilsam ani some’ sanga man xasta gar to‘g‘ri bayon,
Shoh bizning shohimiz, sulton bizing sultonimiz,
Davr bizning davrimiz, davron bizing davronimiz.*

Shoir birinchi misrada shohni saxovat bobida Hotam Toy [4, 150-161] bilan taqqoslab, “*hilqati*” va “*bazli saxovat*” kabi birliklar orqali hukmdorning xalqparvarligiga ishora qiladi. Tabibiy Feruzning adolatini shunday mubolag‘a qiladiki, shoir shohning adolati Noshiravonnikidan ham ustun ekanini tasvirlash uchun “*munfail*” so‘zidan foydalanadi. Talmeh va mubolag‘a san‘atlarini uyg‘unlashtirib, shohga bo‘lgan yuksak ehtiromiga ishora qiladi. Keyingi misralarda hukmdor saroyining ilm-ma‘rifat sohiblari uchun tinchlik maskani ekanini ifodalash uchun “*dargahi oliy*” va “*doru-l-amon*” birikmalarida mubolag‘a san‘atidan foydalanadi. Bu misrada shoir o‘zini “*xasta*” deb atab, zimdan o‘zining jismoniy holatiga ham ishora qiladi. Shu orqali Tabibiy o‘z ijodiy imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Har bir band yakunida takrir san‘atidan foydalanib, hukmdorga bo‘lgan sadoqatini yanada kuchaytiradi. Shoir Feruz va o‘zi yashagan davrlarni adolat va ezgulik davri ekanini ta’kidlash uchun raddul maqta’dan foydalanadi. Bu orqali shoir davr va hukmdorga bo‘lgan sadoqat va muhabbatni yanada kuchaytirib tasvirlaydi.

Tabibiy musammatlarining katta qismi voqeaband asosida qurilgan bo‘lib, shoir o‘z qarashlarini quyidagi band bilan davom ettiradi. Musabba’ning mazkur bandi ham g‘oyaviy, ham badiiy jihatdan yuksak saviyali asar bo‘lib, o‘zida muhim falsafiy-axloqiy qadriyatlarni mujassam etadi. Asarda ilgari surilgan adolat, shon-shuhrat va ma‘naviy yuksalish kabi g‘oyalar tasvirlanadi.

Shoir musabba’ bandlarida ifoda ta’sirchanligini oshirish uchun mubolag‘aning bir necha turlari (g‘uluv, ig‘roq, tablig‘), tashbeh va talmeh kabi san‘atlardan foydalanadi. Bu esa shoirning “ilmi bade’ ” sirlarini chuqur egallab, nazm yaratishda mahorat ko‘rsata olganiga dalolat qiladi. Quyidagi bandda ideal davlat va uning rahnamosi tasviirlanadi:

Saltanat taxtig‘a to izzat bila qo‘ydi qadam,

*Dahri dunyo to bo‘ldi qissai Kovus-u Jam,
Kim oning davri aro bo‘ldi jahon rashki Eram,
Ollida bordur salotin xayli andoqkim xadam,
Xirgahidindur namuna nilgun yetti xiyam,
Shoh bizning shohimiz, sulton bizing sultonimiz,
Davr bizning davrimiz, davron bizing davronimiz.*

Mazkur bandda shohning saltanat taxtiga sharaf bilan qadam qo‘ygani tasvirlab, uning hukmronligi davrida dunyoning Kovus va Jamshid davrlariga aylangani aytadi. Bu orqali hukmdorning saltanat taxtiga chiqshini qadimgi Eron shohlarining davrlariga tashbeh qiladi va talmeh san’atidan samarali foydalanish orqali asar badiiyligi yuksak darajada ta’minlaydi. Shoh davrida dunyo Eram bog‘iga havas qilgani ta’kidlanadi. “Rashki Eram” (Eramning hasadi) birikmasi orqali shoh saltanati go‘zalligi va farovonligi Eram bog‘idan ham ustun qo‘yiladi. Bu misrada shoir mubolag‘a, tashbeh san’atlari malohatini namoyon qiladi. Boshqa sultonlar shoh oldida xizmatkorlar kabi saf tortib turgani aytiladi. Bu misra orqali shohning qudrati va mavqei boshqa hukmdorlardan yuqori ekanini mubolag‘a san’ati orqali ko‘rish mumkin. Keyingi misrada ham yuqoridagi badiiy san’atlar mahobati namoyon bo‘ladi. Shohning oq chodirlari moviy osmon gumbaziga o‘xshatilmoqda. “Nilgun yetti xiyam” (moviy yetti chodir) birikmasi orqali shoh qudratining beqiyosligi va saltanatining ulug‘vorligi ta’kidlanadi. Avvalgi misralarda bo‘lgani kabi, “shoh” va “sulton” so‘zlari takrorlanishi orqali shohga bo‘lgan sadoqat va ehtirom yanada kuchaytiriladi. So‘nggi misrada ham “davr” va “davron” so‘zlari takrorlanadi va shoir yashayotgan davrning nur va farovonlikka to‘la ekani uqtiriladi.

Shoir musabba‘ning keyingi bandida tashbehi musalsal [3, 88] san’atidan foydalanib, qahramonga xos komillik belgilarini tasvirlaydi. Bandda islom olamining payg‘ambarimiz(s.a.v)dan keyingi to‘rt xalifalari sifatleri orqali lirik qahramon ichki dunyosi bayon qilinadi:

*Adl aro bordur Umardek, sidq aro Bu Bakrvor,
Hilm aro Usmon misollik sohibi ilmi viqor,
Fazl ila rasmi shijoatda Alidek nomdor,
Ham onga bazl-u saxo-u rasmi shafqatdur shior,
Zoti poki el boshig‘a soyayi Parvardigor,
Shoh bizning shohimiz, sulton bizing sultonimiz,
Davr bizning davrimiz, davron bizing davronimiz.*

Bandda Bakrvor, viqor, nomdor, shior, parvardigor, sultonimiz, davronimiz so‘zlari qofiyadosh vosita bo‘lib xizmat qilgan. “Adl aro bordur Umardek, sidq aro Bu Bakrvor” shoir bu misrada hukmdorni adolat bobida Hazrati Umar(r.a)ga, rostgo‘ylikda Hazrati Abu Bakr(r.a)ga o‘xshatadi. “adl” va “sidq” so‘zlari tufayli hukmdorning odilligi va haqgo‘yligi ta’kidlangan. Umar (r.a) va Abu Bakr (r.a) ismlarining qo‘llanishi tashbeh san’atiga misol bo‘la oladi. Ikkinchi misrada shoh muloyimlik va vazminlikda Hazrati Usmonga o‘xshatilmoqda.

Hazrat Usmonning “hilm” (muloyimlik) va “ilm” sifatlari hukmdorda ham mujassam ekanligi ta’kidlangan. Mazkur misrada hukmdor ilm-fazl va jasoratda Hazrati Aliga qiyoslanmoqda. “Fazl” (ilm-ma’rifat) va “rasmi shijoat” (jasorat) so‘zlari bilan hukmdorning ma’rifatli va dovyurak ekanligi ta’kidlangan. Bu yerda ham Hazrati Aliga tashbeh qilingan. To‘rtinchi misrada podshohning saxiyligi va mehribonligi ulug‘lanadi. “Bazl” (saxiylilik), “saxo” (oliyhimmatlik) va “shafqat” so‘zlari bunga ishora qiladi. Misrada juft so‘zlar (bazlu saxo, rasmi shafqat) qo‘llanilgan bo‘lib, tanosub san’atini hosil qiladi. Beshinchi misrada shoir hukmdor xalq boshiga Parvardigorning soyasidek himoya qiluvchi inson sifatida ta’riflangan. “Zoti pok” (nasl-nasabi pok) va “soyayi Parvardigor” (Parvardigor soyasi) iboralari orqali hukmdorning ezgu inson ekanligi mubolag‘a san’ati orqali tasvirlangan. So‘nggi baytilari yuqoridagilar bilan hamohang tarzda hukmdordan faxrlanish xissi tasvirlangan.

Tabiiy ushbu yetti misrada hukmdorni xalifalarga xos ilg‘or sifatlarni o‘zida mujassam etgan komil inson sifatida madh etadi. She’rda tashbeh, takror va mubolag‘a kabi she’riy san’atlar mohirlik bilan qo‘llangan. She’rdan shoirning o‘z hukmdoridan, davri va yurtidan cheksiz faxrlanish hissi ufurib turadi.

Shoir keyingi bandda o‘z davridagi ilm-fan, san’at, adabiyot va madaniyatning yuksak darajada ekanligini, xususan, musiqa san’atining rivojlanganini mamnuniyat bilan ta’kidlaydi. Xalqning bu kayfiyatdan behad xursandligi, hukmdorga bo‘lgan minnatdorchilik tuyg‘usi ham o‘z ifodasini topgan. Shoir ma’naviy yuksaklik va e’tiqod mavzusini yetakchi g‘oya sifatida ilgari suradi:

*Ey mug‘anniy, sen dog‘i hardam chekib dilkash navo,
Rost ohangida tortib savt tuz nasri sabo,
Bazm eli nag‘motinga qilsun dilu jonin fido,
Kim qilib shukri inoyotu karam beintiho,
Qildi mundoq fursati farxundani bizga ato,
Shoh bizning shohimiz, sulton bizing sultonimiz,
Davri bizning davrimiz, davron bizing davronimiz.*

Birinchi misrada shoir mug‘anniyga murojaat qilib, undan dilbar kuylar ijro etishni so‘raydi. Keyingi misrada esa yoqimli ohanglar nasimi shabadaga qiyoslanadi. Mug‘anniy nolalarning dilkashligini kuchaytirish uchun “nasri sabo” tashbehidan foydalanadi.

Uchinchi misra bazm ahlining san’atkor ijrosidan mamnunligini ifodalaydi. Ular ayni paytda o‘zlarini musiqa ohanglari uchun qurbon qilishga ham tayyor. Bu – mubolag‘a san’ati bo‘lib, mug‘anniy mahorati va ta’sir kuchu kuchli ekanligiga ishora qilib keladi. Bu esa o‘sha davrda nafaqat ijrochilik, balki tinglovchilarning ham yuksak madaniyatga ega ekanliklarini bildiradi.

Shoir keyingi misrada Yaratganning karamiga shukronalar aytish lozimligini uqtiradi. Zero, ayni shu ilohiy inoyat tufayli odamlarga shunday fayzli va qutlug‘ fursat ato etilgan. Demak, mazkur musabba’da diniy-irfoniy ruh ham mavjud. Nihoyat, so‘nggi ikki misra shoh

va uning zamonasi ta’rifiga bag’ishlangan. Xalqning o‘z hukmdori bilan faxrlanishi, uning adolati va saxovatidan mamnun ekani yaqqol ifodalangan. “Davr” va “davron” so‘zlarining takrori esa o‘sha davrning barqarorligini ta’kidlash uchun xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu yettilikda ham mug‘anniyga xitob orqali Muhammad Rahimxon Feruz davrining yorqin manzarasini chizadi. Shoh inoyatidan el baxramandligi va buning ijtimoiy hayotdagi in’ikosi ramziy tarzda mug‘anniy va uning dilrabo kuylari vositasida ochib beriladi. Badiiy san’atlar, jumladan, tashxis, talmeh, takror, tazod kabi vositalar asarga joziba bag’ishlagan.

Ushbu musabba’ning keyingi bandi Muhammad Rahimxon Feruzga bag’ishlangan bo‘lib, unda shoh shaxsiyatining ulug‘vorligi, nasab-nasabining pok ekanligi hamda u hukmronlik qilgan davrda islom dinining yuksalgani ta’riflanadi. Shoir o‘z hukmdorini Muhammad alayhissalomning avlodi, dindorlar amiri sifatida ulug‘laydi. Bu orqali, shoh qudratining ilohiy asosga ega ekani, uning adolat va diyonat timsoli ekani g‘oyasi ilgari suriladi. Band quyidgicha ifodalangan:

*Zoti a’losi nasabda nasli faxr ul-mursalin,
Dahr aro ashraf vujudi ham amir ul-mo’minin,
Ostoni do‘st ichra uylakim charxi barin,
Taqqiyat topdi muborak asrida islomi din,
Xusravi nusratnishin shohanshahi davlat qarin,
Shoh bizning shohimiz, sulton bizing sultonimiz,
Davir bizning davrimiz, davron bizing davronimiz.*

Birinchi misrada Muhammad Rahimxon Feruzning nasabi ulug‘lanib, u payg‘ambar avlodidan ekani ta’kidlanadi. “Zoti a’lo” va “faxr ul-mursalin” birikmalari shoh shaxsiyatini yuksak maqomga ko‘taradi. Keyingi misrada shohning dunyodagi eng sharaflı inson ekani aytiladi. “Dahr aro ashraf vujud” va “amir ul-mo’minin” ta’birlari unga nisbatan qo‘llanilishi bejiz emas. Zero, ilohiy zot bo‘lmish shohga bunday sifatlar munosibdir.

Uchinchi va to‘rtinchi misralar o‘zaro bog‘liqlikda kelgan. Ushbu baytda shoh saroyining osmonday yuksakligi, islom dinining uning zamonasida rivoj topgani uqtiriladi. “Charxi barin” tashbehi va “islomi din” tarkibi she’rning badiiyatini, ta’sirchanligini oshirgan.

Oxirgi baytda esa shohga xos fazilatlar sanab o‘tiladi: u zafar quchgan xusrav (shoh), davlatmand shohanshoh. “Nusratnishin” va “davlat qarin” birikmalari o‘rtasidagi tazod mazmunni yanada bo‘rttirib, shoh qudratini oshiradi. So‘nggi ikki misra anaforik tarzda takrorlanib, xalqning o‘z rahbaridan, uning hukmronlik davridan g‘oyat mamnunligini bildiradi.

Shoir ushbu musabba’da o‘z homiysining ma’naviy va jismoniy qiyofasini so‘z san’ati vositasida mohirona chizib beradi. Feruzning fazilatları, uning zoti, nasabi ulug‘lanadi. Shuningdek, shoh davrida yurt tinchligi, din ravnaqiga erishilgani alohida ta’kidlanadi. Badiiy san’atlar, diniy-irfoniy istilohlar she’rning ta’sirchanligini oshirgan, asosiy maqsadni yorqin ifoda etishga xizmat qilgan.

Tabibiyning ushbu musabba’si shoh Muhammad Rahimxon Feruzning ismi va uning ma’nolarini sharhlashga bag‘ishlangan bo‘lib, shoir shoh ismida mujassam bo‘lgan fazilatlar va shaxsiy xislatlarni yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlaydi. Ismi va shaxsiyatidagi fazilatlarini go‘zal tashbehlar, mubolag‘alar va tazodlar vositasida tarannum etadi. Band quyidagicha:

*Nomi pokidur Muhammad yor o‘lub onda rahim,
Uch kelib ul ikki ismi ashraf ichra harfi jim,
Biri koni muruvvat qilg‘ali shod obi siym,
Birisi bahri saxovat bergali nafi’ aziym,
Biri mehridur adolat avji uzra mustaqim,
Shoh bizning shohimiz, sulton bizing sultonimiz,
Davr bizning davrimiz, davron bizing davronimiz.*

Birinchi misrada shohning ismi Muhammad ekani, unga rahm-shafqat yor bo‘lib kelgani aytiladi. Shoir asar qahramoni ismi Muhammad Rahimxon ekaniga ishora qiladi. “Nomi poki” iborasi orqali shoh ismi ulug‘lanadi va Payg‘ambar Muhammad (s.a.v) nomiga qiyoslanadi. Bu esa shohning buyuk inson ekaniga ishora. Misrada tashbeh san’atidan unumli foydalanadi. Muhammad ismi orqali talmehga ham ishora qiladi.

Ikkinchi misrada shoh ismidagi uch jim harfi ikki sharaflı ism orasida kelishi aytiladi. Shoh ismi va undagi harflarning go‘zal ma’nolar anglatishiga urg‘u beriladi. Keyingi uch misra o‘zaro uzviy bog‘langan. Har bir misra shoh ismidagi alohida jim harfi orqali uning biror fazilatini ochib beradi:

Uchinchi misrada shoh muvurrat koni ekani, kumush suvini, ya’ni in’omlarini odamlarga saxiylik bilan ulashishi aytiladi. “Obi siym” iborasi ko‘chma ma’noda ishlatilgan bo‘lib, saxovatga ishora qiladi.

To‘rtinchi misrada shoh saxovat dengizi ekani, u orqali xalqqa ulkan foyda kelishi ta’kidlanadi. “Bahri saxovat” va “nafi’ aziym” birikmalari o‘rtasida mubolag‘a bor. Ya’ni shohning saxovati ham, qiladigan yaxshiliklari ham benihoya ekani uqtiriladi.

Beshinchi misra shohdagi yana bir fazilatni - adolatni ulug‘laydi. Shoh quyosh (mehr) kabi adolat cho‘qqisida barqaror turadi. “Mehri adolat” tashbehi va “avji uzra” iborasi o‘rtasida tazod san’ati mavjud. Adolat yerdagi tushuncha bo‘lsa, “avj” – osmonni, yuksaklikni bildiradi. Demak, shohning adolati shunchalik yuksakki, u osmon qadar pok va oliydir.

Nihoyat, so‘nggi ikki misra shohga nisbatan xalqning mehr-muhabbati, sadoqatini ifodalaydi. “Shoh bizning shohimiz, sulton bizning sultonimiz” jumlası takrorlanishi orqali bu tuyg‘u yanada kuchaytiriladi.

Shunday qilib, mazkur musabba’da Tabibiy Muhammad Rahimxon Feruzning shaxsiy fazilatları – rahmdilligi, saxovati va adolatini uning ismi bilan bog‘liq holda madh etadi. Shoh timsolida ideal rahbar, dono inson qiyofasi gavdalanadi. Banddagi tashbeh, mubolag‘a va tazod kabi badiiy san’atlar she’rning ta’sirchanligini oshirgan, unda shoh shaxsiyatiga bo‘lgan yuksak ehtiromni ifodalashga xizmat qilgan.

Ushbu bandda nido san’atidan foydalanib, shoir o‘z homiysi Muhammad Rahimxon Feruzni ulug‘laydi va unga duolar qiladi. She’rning badiiy-estetik xususiyatlari quyidagicha:

*Aylagil, yo Rab, anga shavkat bila hashmat ato,
Xizmatida qilsun olam shahlari qulluq ado,
Yer yuzi ham xittai hukmida bo‘lsun borho,
Ondin o‘zga shoh hargiz bo‘lmasun olam aro,
Ne esa komi inoyoting bila bo‘lsun ravo,
Shoh bizning shohimiz, sulton bizing sultonimiz,
Davr bizning davrimiz, davron bizing davronimiz.*

Bandda misralar o‘zaro qo‘fiyalanadi. “Ato”, “ado”, “borxo”, “aro”, “ravo”, “sultonimiz”, “davronimiz” kabi birliklar qo‘fiyadosh so‘zlar sifatida ishlatilgan bo‘lib, misralar yaxlit kompozitsiyani hosil qilgan. Musabba’ning dastlabki besh misrasi bir-biri bilan uzviy bog‘langan.

Birinchi va ikkinchi misralarda shohga shavkat-hashamat ato etilishi hamda boshqa shohlarning unga qulluq qilishi haqidagi duolar tasvirlanadi. Uchinchidan beshinchi misragacha yer yuzining shoh hukmida bo‘lishi, undan o‘zga shoh bo‘lmasligi va shoh orzularining ijobat bo‘lishi haqidagi fikrlar bayon qilinadi.

Badiiy san’atlardan mubolag‘a usuli keng qo‘llanilgan. Masalan, “olam shahlari qulluq ado qilishi”, “yer yuzi shoh hukmida bo‘lishi” kabi misralar orqali Muhammad Rahimxon obrazi ideallashtirilib, mubolag‘a san’ati keyingi misralarda ham o‘z aksini topadi. “Ondin o‘zga shoh hargiz bo‘lmasun olam aro” misrasida shohning yagonaligi yanada kuchaytirib tasvirlanadi.

Shuningdek, “shoh-sulton”, “davr-davron” so‘zlarining sinonimik qatorga ega ekanligi ham she’riy nutqning boyishiga xizmat qilgan. Bandning so‘nggi ikki misrasi o‘ziga xos xulosa vazifasini o‘taydi. Ularning anaforik tarzda boshlanishi va takrorlanishi g‘oyaviy yukni kuchaytiradi. Ya’ni, shoh va uning davri xalqning mulki, qadri ekani yana bir karra ta’kidlanadi.

Musabba’da an’anaviy tarzda istiora san’atlari ham sezilib turadi. Masalan, “kom” so‘zi orzu, istak ma’nosini ifodalab, ko‘chma ma’noda kelgan. Shoir butun she’r davomida parchaning boshida kelgan iltijoli ohangni saqlab qoladi. Yaratganga murojaatdan boshlangan misralar oxirgi baytga qadar ana shu ruhda davom etadi. Bu esa lirik qahramon (shoir) ruhiyati bilan bog‘liq holatlarni yoritib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu musabba’da Muhammad Rahimxon shaxsiyati madhiya shaklida ideallashtirilib, mubolag‘a qilinadi. Biroq shoh timsoli orqali mutafakkir shoir hukmdor bo‘lish mas’uliyatining naqadar yuksakligini ham eslatib o‘tadi. Musabba’ yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan bo‘lib, unda Tabibiyning o‘ziga xos uslubi, falsafiy mushohadasi va so‘z qo‘llash mahorati namoyon bo‘ladi.

Ahmad Tabibiy so‘nggi bandda o‘z hayoti va ijodiy faoliyatining asosiy maqsadlarini bayon qiladi. U Muhammad Rahimxonga bo‘lgan sadoqati va uning xizmati yo‘lida qilayotgan

sa'y-harakatlari haqida so'z yuritadi. Shu bilan birga, o'z she'riyatini yuksak maqomga ko'tarish, uni xalq va hukmdor e'tiboriga loyiq qilish orzusini ham ifodalaydi. Band quyidagicha:

*To Tabibiy zor ham topib farahlar behisob,
Xizmatig'a aylabon jon birla sa'y irtikob,
Bo'lg'ali lutfu inoyotidin damodam komyob,
Axtarib doim zamiri daftarini bob-bob,
Rishtai nazm uzra cheksun ro'zu shab durri xushob,
Shoh bizning shohimiz, sulton bizning sultonimiz,
Davr bizning davrimiz, davron bizning davronimiz.*

Bandning birinchi misrasida shoir o'z taxallusi orqali o'zini nazarda tutadi. "Zor" so'zi intizorlik, ishtiyoq ma'nosini ifodalab, "behisob farahlar" birikmasi mubolag'a san'atiga ishora qiladi. Shoir fikrlarini davom ettirib, keyingi misrada o'zining shohga xizmat qilishga har doim tayyor ekanligini bildiradi. "Sa'y" va "irtikob" so'zlari o'rtasida tazod san'ati mavjud. Shoir ta'kidni kuchaytirish uchun "jon bilan" iborasini qo'llaydi.

Uchinchi misra oldingi fikrning davomi bo'lib, unda shoh marhamatidan umidvorlik ifoda etilgan. "Lutf" va "inoyat" so'zlari o'rtasida ma'no yaqinligi orqali ma'no kuchaytiriladi. Shoir o'z ijodini shoh ko'ngliga manzur bo'lishini orzu qiladi. Misrada tashbeh va tashxis san'ati qo'llanilgan. Shoh ko'ngli kitobga, uning har bir qatlami esa kitob bobiga o'xshatilgan.

Shoir ushbu misrada o'z ijodiy jarayonini tasvirlaydi. "Rishta" va "nazm" so'zlari o'rtasida tazod san'ati mavjud. She'r ipga, go'zal so'zlar esa marvarid donalariga o'xshatiladi. Shoir bu bilan she'r yozishning nafis va mashaqqatli ekanligiga ishora qiladi. "Ro'z-u shab" iborasi esa ijodiy jarayonning doimiyligini ifodalaydi.

Har bir musabba' nihoyasidagi ushbu ikki misra radif sifatida kelgan bo'lib, takror san'atiga asoslangan. Ularda shohga nisbatan cheksiz muhabbat va sadoqat ifodalanadi. "Shoh-sulton", "davr-davron" so'zlarining sinonimik qatorga egaligi ham ahamiyatga molik.

Xulosa qilib aytganda, ushbu musabba'da Tabibiy o'z ijodiy kamoloti sari intilar ekan, hukmdorga, davlat ravnaqi va el osoyishtaligiga xizmat qilishni maqsad qilganini ifoda etadi. Uning boqiy meros qoldirish orzusi zamirida insoniyatga ezgulik ulashish istagi mujassam. Musabba'da qo'llanilgan badiiy vositalar shoir mohir so'z san'atkori ekanligidan dalolat beradi.

XULOSA

Adabiyotimiz tarixida an'ana va novatorlik masalasi har doim dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Bu jihatdan XIX asr Xorazm adabiy muhitida yaratilgan asarlar, xususan, Ahmad Tabibiyning Fazliy asariga tatabbu' sifatida bitilgan musabba'si alohida e'tiborga molik. Musabba'ning qiyosiy-tipologik tahlili natijasida uning o'ziga xos xususiyatlari va badiiy-estetik qimmatini oydinlashdi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Tabibiy musabba'si an'anaviy madhiya janrining yangicha talqini sifatida baholanishi mumkin. Unda shoirning Muhammad Rahimxon Feruz shaxsiyatini

tasvirlashdagi o‘ziga xos uslubi, xususan, musulmon xalifalari va qadimgi Eron hukmdorlari obrazlaridan foydalanish mahorati yaqqol namoyon bo‘lgan. Shoir tashbeh, talmeh, mubolag‘a, tazod kabi mumtoz badiiy san’atlarni mohirona qo‘llab, ularni yangicha ma’no-mazmun bilan boyitgan. Ayniqsa, tashbehi musalsal san’atining qo‘llanilishi orqali hukmdor obrazini yorqin va ta’sirchan gavalantirishga erishgan.

Asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, Tabibiy o‘z davri ijtimoiy-siyosiy hayoti, madaniyat va ma’rifat taraqqiyoti, xalq turmush tarzini tasvirlash bilan birga, individual ruhiy kechinmalarini ham nozik did bilan ifoda eta olgan. Musabba’da muallif badiiy tafakkurining serqirraligi, falsafiy mushohadalarining teranligini ko‘rsatuvchi ko‘plab o‘rinlar mavjud.

Kompozitsion jihatdan mukammal tuzilgan asar bandlari o‘zaro mantiqiy bog‘langanlik xususiyatiga ega. Radif va qofiyalar tizimi, she’riy takrorlarning o‘rinli qo‘llanilishi musabba’ning badiiy qimmatini yanada oshirgan. Tabibiyning so‘z qo‘llash mahorati, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish uslubi asarning estetik ta’sir kuchini ta’minlagan.

Shu tariqa, mazkur musabba’ XIX-XX asr o‘zbek adabiyotining muhim yodgorliklaridan biri sifatida alohida ilmiy-adabiy qimmatga ega. Unda mumtoz adabiy an’analar va ijodiy yangiliklar uyg‘unlashgan, davr ruhi va ijodkor badiiy mahorati mujassamlashgan. Bu esa asarning adabiyotimiz tarixida tutgan o‘rnini belgilaydi va uning ilmiy-nazariy jihatdan yanada chuqurroq o‘rganilishini taqozo etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Fazliy. Majmuatu-sh-shuaro. Toshbosma. ILN nashriyoti. 1900. –B. 422-424.
2. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. –Тошкент: ФАН нашриёти, 1976. –Б. 81.
3. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. –Тошкент: Зарқалам, 2006. –Б. 88.
4. Alisher Navoiy. MAT. Hayrat ul-abror. –Toshkent: Fan, 1991. –B. 422.
5. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ (Форсчадан Алибек Рустамов таржимаси). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981.
6. Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.
7. Бобур. Мухтасар (Нашрга тайёрловчи Саидбек Ҳасан). – Тошкент: Фан, 1971.
8. Юсупова Д. Аруз ва мумтоз поэтикага кириш. – Тошкент: Akademnashr, 2020.
9. Бобур. Мухтасар. –Тошкент: Фан, 1978.